

**O'ZBEK SENOGRAFIYASINING PAYDO BO'LISHI,  
SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISHI**

*Ismoilova Fotima Izzat qizi*  
*O'zDSMI 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada teatrda spektakl sahnalashtirish jarayonida muhim o'ringa ega bo'lgan ssenografiyaning yurtimizda qay tartibda yuzaga kelgani, qanday shakllanib, rivoj topganligi hamda uni yuksaltirgan teatr rassomlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jonli dekoratsiya, dastgohli rangtasvirchi, illyustatorlik, Usto Mo'min, dekoratsiya, avangardlashgan, mizansahna, kompozitsiya, "Hamlet", opera va balet teatri, konstruktivizm, illyuzor, obraz.

XX asr boshiga kelib og'zaki dramaturgiyaga asoslangan an'anaviy teatrning improvizatsion ijrochilik san'ati, o'ziga xos sahna makoni Turkistondagi rus teatri ta'siriga, raqobatiga chiday olmadi. Shu bilan birga Yevropa tipidagi teatr tartib-qoidalarini o'zbek madaniyati muhitiga singdirilishi ham oson bo'lmadi. Sahna makonining yopiq maydonga joylashtirilishi, shartli "jonli dekoratsiya"dan voz kechilib, hayot illyuziyasini beruvchi maxsus dekoratsiya unsurlarining ishlatilishi, yozma dramaturgiyaga asoslangan adabiy asosning mavjudligi, rejissura va aktyorlik san'atining ma'lum sistemaga solingani bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu boisdan ma'rifatparvarlar teatrida rassomlik san'atini o'zlashtirishdagi ilk tajribalarni rejissura va aktyorlik san'ati bilan bog'liq holda sahna makoni va sahna dekoratsiyasining tarkib topishini manbalar asosida o'rganish ilm-fan uchun qimmatlidir.

1920-yillar oxirlariga kelib, O'zbek teatri endigina shakllana boshladi. Bu davrda professional teatr rassomlari hali yo'q, shu sabab teatr sohasida faoliyat yuritayotgan rassomlar har xil tashqi ta'sirlarga beriluvchan edilar. Ular turli sabablar bilan Turkistonga kelib yashayotgan rus dastgohli rangtasvirchi rassomlari bo'lishgan. Shu davrda teatrga birinchi professional rassomlar kirib kela boshlashdi. Ularning bizgacha yetib kelgan, spektakllar uchun yaratgan eskizlarida teatr eskiziga xos professional sifatlar – obrazli-ifodali tasviriy yechim, usul va uslubiy mahorat yetishmasligi seziladi. Ularda teatr eskizidan ko'ra ko'proq illyustrativlik xususiyatlari mavjud. Shunga qaramay, rassomlar sahna fazoviy makonini imkon darajasida spektakl ruhiga yaqinlashtirishga, aktyor harakati va mizansahnalar qurish uchun dekoratsiyalar planirovkasidan joy ajratishga bo'lgan intilishlar mavjud. O'zbek teatr san'ati va uning komponenti teatr dekoratsion san'atining keyingi rivojini o'zbek milliy kadrlar– dramaturglar, aktyorlar, rejissorlar, teatr rassomlari va albatta, milliy stasionar teatr binolarisiz tasavvur qilib bo'lmas edi. Bu yo'nalishdagi birinchi muhim qadam O'zbek davlat dramatik teatrining tuzilishi hamda Moskva, Leningrad va Boku shaharlarida bo'lajak rejissor, aktyor va rassomlarning professional saboqlarini olib qaytishlari bo'ldi. Bu yillarda, yangi tuzilgan Hamza nomidagi dramatik teatrdan Matvey Akimovich Yesipov, Viktor Ivanovich Ufimsev, P.O.Ryabchikov, Hamidulla Ikromov o'zbek dramatik spektakli, musiqiy teatrdan Aleksandr Vasilyevich Nikolayev

(Usto Mo'min) va Shoxnazar Shoraximov kabi rassomlar faoliyat yuritishib, musiqiy spektakllar dekoratsion san'atini shakllantirishga zamin yarata boshladilar.

Hamza nomli teatr sahnalashtirgan birinchi sahna asari V.N.Bill-beloserkovskiyning o'sha davr eng ilg'or pyesasi asosidagi "Po'rtana" (1929) dramasi edi. Bu teatrning oyoqqa turishi ana shu spektakl hamda Hamza ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dramatik spektakl va uning tasviriy obrazi – dekoratsion tizimning shakllanishida maktab bo'lib xizmat qildi. Spektakl uchun bezaklarni 1920-30-yillarda O'zbekistonda yashab, teatrda dekoratorlik faoliyatini yuritgan, dramatik spektakl dekoratsiyasining shakllanishiga yuksak hissa qo'shgan rassom P.Ryabchikov edi. U haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan, uning ijodi o'zbek teatrining boshqa ilk rassomlari kabi kam o'rganilgan bo'lsa-da, u e'tiborga arzigulik rassomlardan biri ekanligi ma'lum. Asosan teatr rassomi faoliyatini yuritgan P.Ryabchikov 1927-yilda tashkil etilgan "Yangi sharq ustalari" uyushmasiga dastgohli rangtasvirchi va grafikachi rassomlar qatorida teatr dekoratori Myakishev (u ham 1920-yillarda O'zbekistonda faoliyat yuritgan rassom-dekoratorlardan bo'lib, u haqda ham ma'lumot yo'q) bilan birga a'zo edilar.

Shu yillar ichida davr xarakteriga xos spektakl dekoratsiyasidagi tashviqot prinsipi rassomlar diqqat markazida turgan. Bunga sabab hozirgi tarixiy bosqichda o'z tabiatida to'g'ridan-to'g'ri, ochiq tashviqotchilik rolini bajaruvchi spektakl tomoshabin talabini qondira olmas edi. Bu davrda siyosiy yo'naltirilgan, yangi tendensiyalarga to'yintirilgan tomoshalarga bo'lgan ehtiyoj jamiyatda hali kuchli bo'lib, bu spektakllar shaklan va mazmunan yangicha ko'rinishda bo'lishi lozim edi. Rassomlar o'z izlanishlarida mana shu muammolarni o'ziga xos yechimiga duch kela boshlashdi. Inqilobiy jarayonlarga xos ommaviy-maydon tomosha san'ati tashviqot shakllarining dastgohli rangtasvir asarlariga ta'siri, o'z-o'zidan teatr dekoratsion san'atida ham sezila boshladi. Bu ta'sir bezak san'atining tasviriy usul va uslublari, shuningdek sahnalashtirilayotgan pyesalarning mazmuniy va ijroviy jihatlarida ham sezila boshladi.

P.Ryabchikov ijodidagi dekoratsiya rangtasvir tizimining janrli o'ziga xosligi, bezakdagi tashviqotga bo'lgan moyillik, detallar aniqligi, dekoratsiya va butaforiyadagi hujjatlilikka bo'lgan intilishdan uzoqlashishga intilish rassom ijodida aniq seziladi. Rassom yaratgan spektakllar bezagidagi uning hayotiy haqiqatni obrazli-ifodali vositalar orqali ochishga bo'lgan intilishi, o'zbek teatri sahnasida dramaturgik materialga etnografik yondashuvdan sahnani xalos qilish harakatini boshlab berdi. Rassom bu davrda yaratgan sahna bezaklarida yaxlit dekoratsion qurilma motivlarini barpo qilishga harakat qiladi. Rassom tiklagan sahnaviy inshootlar eskizlaridagi ravon chizgilar ritmi, aniq fazoviy bo'laklar yalitigi sahna arxitekturasining nigohan yaxlit anglanishiga yordam beradi. P.Ryabchikov spektakllar nigohiy obrazini kubizmga monand hajmli-geometrik shakllar yordamida hal qiladi, rangni esa impressionistlar kabi kompozitsiyaga ramz sifatida kiritadi va asosiy diqqatni 20-yillar sahna bezagiga xos bo'lgan tashviqot prinsiplariga qaratadi. Spektakl dekoratsiyasi tasviriy yechimining bunday xal qilinishini biz 20-yillar boshlarida rus teatrlarida rassomlar L.S.Popovning "Великодушный рогоносец", I.Yu.Shlepyanovning "Trest De", N.I.Altmanning "Misteriyabuff" va boshqa qator spektakllar dekoratsiyalari uchun yaratgan eskizlarida uchratamiz. P.Ryabchikov yaratgan sahna bezaklari spektakl janri

va uslubiga mos nigohiy ifodalilik bilan ajralib turgan. 1930-yilda Moskva, Leningrad, Boku va mamlakatning boshqa shaharlariga uyushtirilgan gastrollar repertuaridagi spektakllar qatorida P.Ryabchikovning “avangardlashgan” dekoratsiyalarida namoyish etiluvchi “Hujum” (V.Yan va Cho’lpon asari, rejissor M.Uyg’ur) spektakli ham bor edi. “Dekoratsiya uchburchak, piramida kabi geometrik shakllar uyg’unligidagi o’ziga xos “simfoniya” edi, bezak tomoshabin va mutaxassislar tomonidan aynan shunday qabul qilingan. 1928-36-yillarda amalga oshirilgan “Niqob yirtildi” (Z.Fatxullin), “Yondiramiz” (K.Yashin), “Paxta shung’iyalari” (U.Ismoilov) spektakllariga H.Ikromov, “Mening do’stim”(N.Pogodin), “Nomus va muhabbat” (K.Yashin) spektakllariga V.Ufimsev yaratgan dekoratsiyalari qatorida “Ikki kommunist” (K.Yashin), “Bag’ovat” (D.Furmanov va S.Polivanov), “Halima” (G’.Zafariy), “Portfelli kishi” (A.Fayko) spektakllariga P.Ryabchikov tomonidan yaratilgan sahna bezaklari teatrga obro-e’tibor keltirdi, O’zbek teatri dekoratsion san’atining professionallashuviga zamin yaratdi.

1930-yillar boshlarida mamlakat miqyosida bo’lganidek, O’zbekistonda ham “quloqchilikka” qarshi kollektivlashtirish uchun kurash e’lon qilindi. Bunga javoban Hamza nomidagi O’zbek davlat drama teatrida shu mavzudagi “Yondiramiz” (1932), “Niqob yirtildi” (1932) va “Mustaqillik” (1933) dramalari, opera sahnasida “Po’rtana” (1934), “Gulsara” (1936) operalari sahnalashtirildi. Bu davrda Hamza nomli teatrdagi faoliyat yuritgan rassomlar orasida rangtasvirchi rassom V.I.Ufimsev ham bor edi. Viktor Ioanovich Ufimsev (1889-1967) 1933-yilda Rossiyaning Shimoliy ural o’lkasidan O’zbekistonga ko’chib kelgan. Rassom O’zbekistonga san’atdagi dekorativ yorqinlikka ko’ngil qo’ygan. Ilk rang tasvir saboqlarini A.N.Klementev ustaxonasida, keyinchalik Omsk badiiy institutida tahsil olgan. O’zbekiston xalq rassomi. 1920-yillar boshlarida V.Ufimsev V.V.Mayakovskiy, V.V.Kamenskiy va o’zi yozgan she’rlarni izdoshlari bilan o’qishgan. V. Ufimsev shu yillarda Buxorodagi “Xalq uyi” interyerini dolzarb mavzudagi panno va shiorlar bilan bezab, bu yerda ham futuristik ruhdagi yig’inlar uyushtirgan.

V.Ufimsevning o’sha davr ijodidagi dekoratsiya o’zining mazmuniy va obrazli imkoniyatlarini to’la ifoda etadi. U yaratgan dekoratsiyalarning ifodali va obrazli jihatlariga rassom, fazoviy makonda tiklangan qurilmaning aniqligi, fakturaning alohida ifodaliligi orqali erishadi. 1934-yilda V.Ufimsev N.Pogodinning “Mening do’stim” pyesasi uchun yaratgan dekoratsiya tabiatida yaxlitlik mujassam bo’lib, naturalizmdan xoli bu bezak teatr san’atining shartlilik rejissor va aktyorlarga xos bo’lgan alohida aktiv plastika va sahnaviy harakat uyushtirish talabini qo’ygan. Bundan tashqari u “Mehmonxona bezagi” (K.Goldoni), “Nomus va muhabbat” (K.Yashin) kabi spektakllarda ham ishlagan.

1930-yillar boshlarida dramatik teatrga o’zbek millatiga mansub birinchi teatr rassomlaridan H.Ikromov keldi. Hamidulla Ikromov (1909-1964) – teatr rassomi bo’lib, u Toshkentda tug’ilgan. 1925-29-yillarda Leningrad teatrlarida teatr dekoratori sirlarini o’rgangan. O’zbekiston xalq rassomi unvoniga ega. H.Ikromov 1931-yildan to umrining oxirigacha Hamza nomidagi O’zbek davlat Akademik drama teatrida avvaliga yordamchi ma’sul rassom, keyinchalik bosh rassom sifatida faoliyat yuritgan. U o’zi bilan teatrga XIX asr ikkinchi yarmi Yevropa va rus teatrlarida tajribadan o’tgan, dekoratsiyaning rangtasvir-hajmli arxitektura prinsiplarini olib keldi. Teatr

dekoratsiyasining konstruktiv tizimida tasvirli orqaparda va oldingi plandagi hajmli qurilmani o'z ichiga olgan bu tipi o'zbek teatr dekoratsion san'atida deyarli 20 yil hukm surdi. Planirovkaning bu ko'rinishida fazoviy makonning birinchi plani asosan sahnaviy qurilmalar uchun ajratilib, ikkinchi plani esa rangtasvirli orqaparda egallagan. Rassom dekoratsiyaning G'arb tasviriy san'ati negiziga asoslangan, bu tipini o'zbek milliy koloritiga moslashtirdi. H.Ikromov hayotda uchraydigan eng sodda maishiy elementlar qiyofalarida sahnaviy-ifodaviy xususiyat topib, ulardan asarlarida foydalandi. U dramatik spektakl uchun yaratgan ilk dekoratsiyalaridan biri, U.Ismoilovning 1932-yilda sahnalashtirilgan "Paxta shung'iyalari" pyesasi sahna bezagi edi. Dekoratsiya uchun bajarilgan eskizga bir qarashda, rassom asosiy e'tiborini planirovkaga qaratgani yaqqol seziladi. U sahna markazini sahnaviy harakat – mizansahnalarni qurish uchun bo'sh qoldirib, planshetning ikki yoni va chuqurligini turli darajadagi stanok va zinalardan tashkil topgan hajmli qurilmalar bilan to'ldiradi. Qurilma markazida rassom paxta ombori idorasini eslatuvchi markaz uyushtirib, umumiy kompozitsiyani shu markazga bo'ysindiradi.

Aleksandr Vasilyevich Nikolayev (1887-1957) realistik rangtasvir asoslarini rus rassomi N.I.Feshinning shogirdi N.K.Evlampiyevdan o'rgangan. Keyinchalik, rus avangard san'ati yo'nalishlaridan birining ijodkori K.S.Malevichga shogirdlik qilgan. U 1921-yilda Samarqandga ko'chib kelib, bu yerda Italyan Renessans davri rangtasviri shaydosi va bilimdoni ijodiga o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Samarqand tarixiy me'morchiligi, o'zbek kiyim-kechaklaridagi dekorativlik – o'zbek koloriti rassomni o'z ijodini qayta ko'rib chiqishga undadi. Rangtasvirini o'zbek san'ati asoslariga qurdi, qator sahna asarlariga dekoratsiya va kostyumlar yaratib, O'zbek teatri rivojiga salmoqli ulush qo'shdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini oldi. A.Nikolayev – Usto Mo'min eskizlari bo'yicha musiqiy spektakllar uchun bir qator yuksak saviyali dekoratsiyalar yaratgan bo'lsada, u teatrda emas, asosan dastgohli rangtasvir va grafikada ijod qilgan rassom sifatida tanilgan. Sharq madaniyatini yaxshi bilgan rassom yaratgan kompozitsiyalarining musiqiy tabiati, tasviriy san'at uslublarini nozik his qilishi, tanlagan ranglarining yorqin va ta'sirchanligi, fazoviy makonni plastik uyushtirish qobiliyati va yuksak tasviriy madaniyati orqali kasbdoshlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan.

Shoxnazar Shorahimov (1908-1968) teatr rassomi bo'lib, Toshkentda tug'ilgan. 1927-1928-yillarda Toshkent san'at muzeyi qoshidagi tasviriy san'at to'garagida ilk rangtasvir saboqlarini olgan. 1928-31-yillarda Leningradda teatr dekoratsion san'ati asoslarini o'rgangan. O'zbek musiqiy spektakllari bezak san'atining shakllanishiga asos solgan rassomlardan biridir. O'zbekiston va mamlakatning qator shaharlarida, shuningdek xorijda uyushtirilgan ko'rgazmalar ishtirokchisi sanaladi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi degan yuksak unvon sohibidir. Leningrad shahrida olgan saboqlari jarayonidagi rassomning qalamtasvir shtudiyalariga bergan ahamiyati, kelajakda uning nozik qalbi va "sezgir" barmoqlari chizgilarni nafis bajarishiga yordam berdi. Toshkentga qaytib kelgan Sh.Shorahimov 1930-40-yillarda Alisher Navoiy nomli opera va balet teatrida teatr rassomi va baletmeysteri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi E.N.Baranovskiy va O'zbekiston xalq rassomi M.A.Gvozdikov kabi rassomlar bilan yelkama-yelka faoliyat yuritib, ulardan dekoratorlik sirlarini o'rgandi, Leningrad teatrlarida egallagan saboqlarini amaliyotda

yanada mustahkamladi.

XX asr 30-yillarida xalq umumiy madaniy hayotidagi ko'tarinkilik tufayli mamlakat teatr dekoratsion san'atida ham keskin rivojlanish ko'zga tashlandi. Bu yillarda teatr dekoratsion san'atida yaxlit dekoratsion qurilma va shu davrgacha amalga oshirilgan tajribalarning eng qimmatli kashfiyotlari jamlanib, ularning uyg'unlashuvi sifatidagi hozirgi kunda ham musiqiy teatrlarimiz sahnalarida ishlayotgan rangtasvir-hajmli dekoratsion sistema ko'rinishi yuzaga keldi. Teatrda ijod qilayotgan rassomlar asta-sekin sahna san'ati turfa janrlarining o'ziga xos ko'rinish va talablariga mos holda yondashib, turlicha tasviriy yechim izlashdi. Rassomlar ijodi tasviriy, uslubiy va fazoviy-konstruktiv nuqtai-nazardan bir-biridan farqlana boshladi. Ularning dramatik asarning turli ko'rinishlariga turlicha yondashuvi, turlicha talqin va har bir rassomning faqat o'zigagina xos usul va uslublari shakllana bordi.

Shulardan biri Ilya Yulevich Shlepyanov (1900-1951) sovet davri teatrlarining taniqli rassomlaridan biri sanaladi. U S.M.Kirov nomidagi (hozirgi Mariin) Leningrad (Peterburg) Akademik opera va balet teatrlarining bosh rejissori va badiiy rahbari (1944-1951), 1946-yilda P.I.Chaykovskiyning "Орлеанская дева" operasi uchun Stalin mukofotiga sazovor bo'lgan. Toshkentda U.Shekspirga "qo'l urgan" rassomning, bir yildan so'ng, 1936-yilda Moskva Revolyutsiya teatrida buyuk dramaturgning "Romeo va Julyetta" fojiasi uchun yaxlit va uyg'unlikda bajargan dekoratsiya va kostyumlari mamlakat teatr san'ati tarixida yorqin san'at asari sifatida muxrlandi. Rassom M.Uyg'ur sahnalashtirayotgan "Hamlet" muhitining vizual-tasviriy obrazini yaratishda U.Shekspir davriga xos, Renessans arxitektura uslubining ravoq va kolonnalar tizimi, shuningdek turli balandlikdagi satx va zinalardan uyushtirilgan yaxlit dekoratsion qurilmaga murojaat etdi. I.Shlepyanov topgan arxitektonik xususiyatli kompozitsion yechim Hamlet tabiatiga nisbatan kontrast dunyo, fitna va jinoyatlar makoni – saroy hayotining nigohiy-tasviriy obrazi edi. Renessans arxitekturasiga xos ravoq va kolonnalar tizimidan uyushtirilgan, ikki yarusli yaxlit dekoratsion qurilmaning labirintsifat qiyofali yagona konstruktiv tizimda yig'ilishi, o'zbek tomoshabinini sarosimaga solgan bo'lishi ehtimol. Har xolda o'sha davr matbuotida "Hamletga" rassom tomonidan yaratilgan sahna bezagi haqida salbiy fikrlar bildirilgani shu sabab bo'lsa kerak.

Semyon Mixaylovich Milenin (1903-1966) o'z ijodiy faoliyatini 1922-yilda Xarkov operetta teatrida dekoratorlikdan boshlagan. 1924-yilda Artyomovsk shahar dramatik teatri bosh rassomi sifatida faoliyat yuritgan. Ukrainaning Lugansk shahrida tavallud topgan rassom 1936-yilda Toshkentga ko'chib kelib, umrining oxirigacha Hamza nomli O'zbek davlat Akademik drama teatrida rassom sifatida faoliyat yuritgan. O'zbekiston xalq rassomi unvoni olgan. Rassom ijodiy yo'lining boshlarida sahnada dramaturgik voqelik nigohiy obrazi va muhit bezagi planirovkasini uyushtirishda tomoshabin e'tiborini o'ziga tortuvchi qator o'ziga xos dekoratsiya va kostyumlar yaratdi. Ular: A.N.Ostrovskiyning "Momaqaldiroq" (1938), U.Shekspirning "Otello" (1941), F.Shillerning "Qaroqchilar" (1955), A.Qahhorning "Shoxi so'zana" (1952) va boshqa qator spektakllar. Rassom ijodida 1940-yillar, ayniqsa uning oxirlari va 50-yillar birinchi yarmida sovet dramaturgiyasi va teatr dekoratsion san'ati uchun xarakterli bo'lgan tendensiyalar yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sahna voqeligi nigohiy obraziga naturalistik yondashuv va

tashqi sahnaviy usul hamda muhitning ashyoviy predmetlar bilan haddan ziyod to'ldirilganlik tendensiyasi edi. S.Mileninning buyuk o'zbek rejissori M.Uyg'ur bilan ijodiy hamkorligi va badiiy tajribasi O'zbek dramatik teatrida tarixiy mavzuli asar sahnalashtirishda dramaturgiyaga xos mizansahnalar qurish, aktyor xatti-harakati va plastikasi, konstruktiv-kompozitsion, koloristik-ifodaviy muammolarni hal etish yo'l-yo'riqlarini muayyan shaklga solib, kelgusi avlod teatr rejissor va rassomlariga ulkan meros qoldirdi.

Bu davrda teatrga murojaat etgan yosh o'zbek dramaturglari kabi teatr professional rassomlari qatori ham kengaya bordi. Ular orasida I.Ya.Valdenberg va D.V.Ushakovlar ham bor edilar. Tasviriy san'atda kam uchrovchi bu tandem, O'zbek teatr dekoratsion san'atining yangi bosqichga qadam qo'yishi va yangi qiyofasining shakllanishini boshlab berishdi. Isaak Yakovkevich Valdenberg (1906-1965) O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Ukrainada tavallud topgan, Kiyev rassomchilik institutida tahsil olgan (1930). 1938-yildan O'zbekistonda yashagan. Diodor Vladimirovich Ushakov (1907-1971) ham O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi hisoblanadi. U Rossiyada tavallud topgan. 1926-30-yillarda Leningradda (VXUTEIN) P.Shillingovskiy ustaxonasida tahsil olgan. I.Valdenberg va D.Ushakovlar Toshkentda Hamza nomli o'zbek hamda M.Gorkiy nomidagi rus davlat Akademik drama teatrlarida o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritgan teatr rassomlaridir. Ushbu teatr rassomlari ijodida rang-tasvir-illyuzor dekoratsiya, umuman sahna bezagiga naturalistic yondashuvning salbiy ko'rinishlaridan xalos bo'lish tendensiyasi ko'zga yaqqol tashlandi. Teatr dekoratsiyasi qiyofasida yengillik, tizimda foydalanuvchi ifodaviy vositalar tanlashdagi ozodlik, sahna asari bezagidagi funkcionallik va shartlilik kabi o'zbek teatr dekoratsion san'ati uchun yangi ijobiy o'zgarishlar sezila boshlandi.

Aleksandr Grigoriyevich Tishler (1898-1980) Ukrainaning Melitopol shahrida tug'ilgan taniqli rangtasvirchi, grafikachi, teatr rassomi hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. U 1912-17-yillarda Kiyev rassomchilik bilim yurtida, 1917-19-yillarda shu yerda A.A.Ekster studiyasida va nihoyat 1921-24-yillarda VXUTEMASda V.A.Favorskiy ustaxonasida tahsil olgan. A.Tishler yaratgan sahna bezaklari obrazlari gohida serto'qima tasavvur va metaforaga boyligi, dekorativligi bilan ajralib turgan. A.Tishler iqtidori tabiatida romantiklik va shoironalik xususiyati mavjud bo'lgan. Teatr rassomi uchun faqat serhasham va bayramona yoki lo'nda qiyofadagi spektakl bo'lmay, teatr haqidagi xalq o'tmishi donoligi zamonaviy estetik tasavvur va abstrakt tafakkurning o'ziga xos sintezi edi. Rassom iqtidori, tafakkuri, qalb tafti va qo'llari "sehri" orqali yaratgan dekoratsiyalarida u sahna illyuzorligi – matoda yozilgan yoki qurilgan perspektivadan, garchi ular sahna fazoviy makoni chuqurligini bo'rttirsa, voz kechadi, unga shartli-konstruktiv yondashadi. Rassom ijodi tabiatidagi bu o'ziga xoslik sabablaridan biri, uning teatrdagi "konstruktivizmning" yo'lga qo'yilishi asoschilaridan biri L.S.Popovanning yaqin dugonasi, teatrdagi ham o'zini sinab ko'rgan, ijodi asosida kubizm yotgan, avangardchi rassom A.A.Ekster maktabini o'tagani bo'lsa, boshqa sabab sovet dizayn maktabidan biri VXUTEMAS da olgan saboqlari mevasi edi.

Mixail Andrianovich Gvozdkov (1880-1954) – O'zbekiston xalq rassomi. U 1934-yilda Rossiyadan O'zbekistonga ko'chib kelib, o'zini mahoratli teatr rassomi

sifatida tanitdi. M.Gvozdikov o'zbek opera sahnasiga dekoratsiyaning rangtasvir-illyuzor tipini birinchi bo'lib olib kirgan, teatr rangtasvirining opera spektakliga xos jilosini mustahkamlagan, uning sahnaviy variantini o'zbek musiqiy teatrida yo'lga qo'ygan teatr rassomi. U asosan Alisher Navoiy nomidagi teatrdagi opera spektakllari sahna bezaklari ustida faoliyat yuritgan. 1939-yilda M.Ashrafiy va S.Vasilenko musiqasiga K.Yashin librettosi asosida amalga oshirilgan, o'zbek mehnatkashlarining chorizmga qarshi qo'zg'olondagi ishtiroki haqida bayon qiluvchi "Bo'ron" birinchi o'zbek milliy operasi sahnalahtirildi. Bu spektakl uchun dekoratsiya va kostyumlar yaratishda M.Gvozdikov o'zbek musiqiy teatri sahnasiga teatr rangtasvirida mukammal bajarilgan, illyuzor-tasvirli yaxlit karkasli tizim olib kirdi. Bu tizim musiqiy spektakl har bir epizodiga xos, turlicha shakl va mazmun kiritdi. O'zbek musiqiy teatri dekoratsion san'atining shakllanib yetishi va rivojida rassom turgan o'rin beqiyos. Uning ijodi bu sohada ilmiy-nazariy va amaliy asos sifatida o'rganildi, musiqiy teatrlar uchun ijodiy manba rolini o'tadi. Rassom orttirgan boy badiiy meros O'zbek opera va balet teatri keying avlodlar rassomlari uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

1930-40-yillarda teatrdagi asosan rangtasvir-illyuzor dekoratsiyalar faoliyatda bo'lib, konstruktiv yechimli dekoratsiyalarga rassom va rejissorlar tomonidan bo'lgan murojaat ancha kamaydi. Teatr rangtasviri chuqur nozik ruhiy va ijtimoiy xususiyatlarni ochishda keng imkoniyatlar yaratardi. Lekin, shu bilan birga teatr san'atida ayrim salbiy holatlar yuzaga kela boshlab, ular o'zini ayniqsa urushdan keyingi davrda yanada yaqqolroq namoyon etdi. Bu davrda sahnada andozalilik, illyustrativlik kabi san'atga zid holatlar o'zini ko'rsatdi. 1940-50-yillar oxirlari spektakllari sahna bezagi ko'rinishining og'irligi, tashqi sahnalashtiruv usullari, bezakdagi ortiqcha predmetlilik, ortiqcha dabdaba sabab sahnada naturalistik yondashuv sezila bordi. Bu davr san'ati, xususan teatr dekoratsion san'atida voqelik va shu zamon kishisini tavsirlashda ijtimoiy realizmning hayotiylik va haqqoniylik prinsiplari talablarini bajarish san'atda naturalizm tendensiyasining yuzaga kelishiga olib keladi.

Meli Musayev (1914-1970) – O'zbekiston xalq rassomi. U Toshkentda tavallud topgan. 1928-29-yillarda Samarqand rassomchilik bilim yurtida tahsil olgan, teatr rassomi. M.Musayevning ijodiy hayoti opera va balet teatri bilan chambarchas bog'liq holda o'tgan. Rassom 1940-yilda Alisher Navoiy nomli opera va balet teatriga kelib, o'z ijodida teatr san'atining bu yo'nalishida Sh.Shorahimov va A.Nikolayev (Usto Mo'min) boshlagan, milliy opera spektakllari dekorativ bezagi asoslarining shakllanish jarayonini davom ettirdi. Birinchi o'zbek balet spektakllari dekoratsion yechimining shakllanishi uning nomi bilan bog'liq. Rassom o'zbek teatri tarixida ilk bor bu sahna uchun notanish, balet spektakli dekoratsiyaning milliylik, obrazlilik, musiqiylik, raqsboqlik muammolari, romantikasi, bezakni sahna fazoviy makonida spektakl xususiyatiga mos joylashtirish, dekoratsiya va kostyumning koloristik uyg'unligi, kostyumning milliylik va plastik xususiyatlarini shakllantiradi. Koloritning u yoki bu ko'rinishda bo'lishi, uning musiqa va raqs plastikasi bilan hamohangligi, bezak elementlaridagi voqelik, musiqa va raqsqa mos plastikaning mavjudligini ta'minladi. Nigohiy elementlarda ritm va rang, shakllarda personajlar ruhiy holati mutanosibligini uyushtirish, spektaklning umumiy atmosferasini tomoshabinga yetkazishda esa shu

atmosfera mos badiiy-ifodaviy obrazlar topishga erishdi.

Teatr dekoratsion san'ati va uning yaratuvchisi – turli davrlar teatr rassomlari bosib o'tgan yo'l, ular qoldirgan ma'naviy boylikni tushunib yetishda, ular biografiyasini o'rganish, alohida ahamiyatga ega vazifadir. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, O'zbek ssenografiya san'atining shakllanib yetishiga o'z ijodi, salohiyati, mashaqqatli va samarali mehnatlari bilan hissa qo'shgan yuqorida nomlari zikr etilgan teatr rassomlari kabi bizning yosh rassomlarimiz ham yuqori marralarni zabt etishlari shubxasiz. Bu yo'lda albatta ularga ustozlari qoldirgan bilim-ko'nikmalari ko'mak beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayid-Akmal Rasulov “O'zbek ssenografiyasi: shakllanish va taraqqiyot jarayoni
2. Dilafuz Qodirova “XX asr O'zbek teatri ssenografiyasi”